

IV. EKSPERTLAR KENGASHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Kengash O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, mutasaddi vazirlik va idoralarning ko'p yillik tajriba va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tarkibidan tashkil topadi.

Kengashning miqdoriy va shaxsiy tarkibi, shuningdek uning raisi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri tomonidan uch yil muddatga tasdiqlanadi. Kengashning ijrochi kotibi Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Faoliyat turi hamda masalaning murakkabligiga qarab, Kengash tarkibiga o'rnatilgan tartibda xorijlik ekspert mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Kengash a'zoriga Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan nomzodlardan:

oliy ma'lumotga ega;

atrof-muhitga ta'sirini baholash sohasida kamida uch yillik ish tajribasiga, shu jumladan ekologik audit, sanoatda ishlab chiqish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot, loyihalash, muhandislik-geologik, iqtisodiy, huquqiy ta'lim xarakteriga ega sohalarda real yutuqlarga ega;

ekspertlik, auditorlik ishlarida xamda mavjud yoki rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish ob'ektlarini texnik va ekologik baholashda ko'p marotaba ishtirok etgan kabi mezonlar asosida tanlanadi.

Kengash qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Yig'ilishda kengash a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etish sharti bilan kengash qaror qabul qilishga xaqlidir.

Kengash qarorlari muhokama ob'ektini amalga oshirishga ruxsat berish (yoki yo'l qo'ymaslik) to'g'risida qaror qabul qilish uchun tavsiyaviy xarakterga ega.

Kengash raisi:

Kengash ishini o'z maqsadlari va vazifalariga muvofiq rejalashtiradi va tashkil etadi;

imkoniyat darajasida kengash faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Kengashning rejalashtirilgan va rejadan tashqari yig'ilishlarini tashkil etadi;

ekspert-maslahat faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan institutsional hujjatlar loyihalarini tayyorlanishini ta'minlaydi;

Kengash faoliyatining asosiy natijalari bo'yicha har yili Davlat ekologiya qo'mitasi raisiga hisobot beradi;

Kengashning joriy faoliyatini boshqaradi;

Kengash yig'ilishlari sanasini, bayonnoma va kun tartibini tasdiqlaydi hamda Kengash qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi;

Kengash yig'ilish Kengash raisining o'rinbosari:

Kengash raisi ta'tilda yoki kasalligi davrida uning vazifalarini bajaradi;

Kengash bayonnomalarining yuritilishini, shu jumladan Kengash majlislari bayonnomasini yuritilishini tashkil etadi.

Ijrochi kotib:

Kengash a'zolarining joriy o'zaro hamkorligini tashkil etadi va ta'minlaydi;

Kengash yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazishni ta'minlaydi, shu jumladan Kengash raisi nomidan kun tartibini va Kengash majlisiga taklif etilgan shaxslar ro'yxatini tuzadi;

Kengash majlisining bayonnomasini yuritadi;

me'yoriy faoliyat masalalari bo'yicha Kengash yig'ilishlari bayonnomasini Kengash a'zolariga yuboradi, qarorlarning bajarilishini nazorat qiladi va ularning o'tkazilishi to'g'risida Kengash raisiga doimiy yig'ilishlarda xabar beradi.

Shikoyat ko'rib chiqilgandan keyin ekspertlar Kengashi majlisining bayonnomasi 2 ish kuni ichida tayyorlanadi va Davlat ekologiya qo'mitasi rahbari imzolaganidan so'ng bir ish kuni ichida ma'lumot yoki ijro uchun davlat ekologik ekspertizasining tegishli hududiy markaziga hamda shikoyat bergan buyurtmachiga ma'lumot uchun yuboriladi.

VI. YaKUNIY QOIDALAR

Ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalari va davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachilari o'rtasidagi bahsli masalalar va nizolar ekspertlar Kengashi tomonidan shikoyat arizasi berilgan kundan e'tiboran 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Ekspertlar Kengashi tomonidan ko'rib chiqish natijalariga ko'ra davlat ekologik ekspertizasining xulosasi yuzasidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

